



UDK:811.512

*Kurshida DJALLOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc*  
*E-mail: khurshida\_@mail.ru*

*O'zDJTU professori, f.f.d M.Umarova taqrizi asosida*

### TRAVEL MEMOIRS OF SAMUEL JOHNSON AND JAMES BOSWELL

Annotation

This article examines the accounts of "Journey to the Western Isles of Scotland" by Samuel Johnson and "Journal of a Tour to the Hebrides" by James Boswell, two representatives of 18th-century English Enlightenment literature. As a result, the analysis revealed the uniqueness and typological aspects, form and content, as well as the artistic features of two works created on the basis of one joint journey. Johnson's travelogue is a collection of essays, while Boswell's is written in the form of a diary. The article concludes: Johnson regularly recorded his observations during his journey, and when describing historical sites and events, he strove for objectivity, relying on specific figures and facts. Boswell's work is presented from a different perspective, with the events of his travels described in the form of memoirs related to Johnson's personal life.

**Keywords:** Age of Enlightenment, travel, travelogue, non-fiction, genre, memoir, diary, essay, journalism.

### ПУТЕВЫЕ ВОСПОМИНАНИЯ СЭМЮЭЛА ДЖОНСОНА И ДЖЕЙМСА БОСУЭЛЛА

Аннотация

В данной статье исследуются отчёты о «Путешествии на Западные острова Шотландии» С. Джонсона («Journey to the Western Isles of Scotland») и «Дневник путешествия на Гебриды» («Journal of a Tour to the Hebrides») Дж. Босуэлла, представителей литературы английского Просвещения XVIII века. В результате анализа выявлены своеобразие и типологические стороны, форма и содержание, а также художественные особенности двух произведений, созданных на основе одного совместного путешествия. Травелог С. Джонсона представляет собой сборник эссе, в то время как произведение Дж. Босуэлла написано в форме дневника. В конце статьи приводятся следующие выводы: С. Джонсон регулярно фиксировал свои наблюдения во время путешествия, а при описании исторических объектов и событий стремился к объективности, опираясь на конкретные цифры и факты. Произведение Дж. Босуэлла представлено с иной точки зрения, то есть события, произошедшие во время путешествия, описаны в форме воспоминаний, связанных с личной жизнью С. Джонсона.

**Ключевые слова:** эпоха Просвещения, путешествие, травелог, нон-фикшн, жанр, мемуары, дневник, эссе, публицистика.

### SAMUEL JONSON VA JEYMS BOSUELNING SAYOHAT XOTIRALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyoti vakillari S.Jonsonning "Shotlandiyaning G'arbiy orollariga sayohat" ("Journey to the Western Isles of Scotland") hisoboti va J.Bosuelning "Gebridga sayohat kundaligi" ("Journal of a Tour to the Hebrides") tadqiq etilgan. Tahlil natijasida bir sayohat asosida yaratilgan ikki asarning tipologik va o'ziga xos jixatlari, shakl va mazmuni hamda badiiy xususiyatlari aniqlangan. S.Jonsonning sayohat tafsilotlari esse shaklidagi asarlar yig'indisidan iborat sayohat hisoboti bo'lsa, J.Bosuelning asari esa kundalik shaklda yozilgan. Maqola so'ngida quyidagi xulosalar berilgan, ya'ni S.Jonson o'z kuzatuvlarini sayohat davrida muntazam yozib borgan, tarixiy obyekt va hodisalarni ta'riflashda aniq raqamlar va faktlarga tayanib, obyektivlikka intilgan. J.Bosuelning asari esa boshqa rakursdan berilgan bo'lib, sayohat davomida sodir bo'lgan voqea-hodisalar S.Jonsonning shaxsiy hayoti bilan bog'liqlikda xotiralar shaklida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatchilik davri, sayohat, travelog, non-fikshn, janr, xotiralar, kundalik, esse, publitsistika.

**Kirish.** XVIII asr Buyuk Britaniyada sayohat adabiyoti tom ma'noda yuksalgan davr sifatida ajralib turadi. XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida yangi yerlarni kashf etish, kolonizatorlik siyosatining avj olishi G'arbiy Yevropa davlatlarida turli mamlakatlarga, noma'lum qit'alarga ilmiy ekspeditsiyalarning keng safarbar etilishi, ular natijasi sifatida safar hisobotlarining yaratilishi, sayohat adabiyotini ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishiga olib keldi. Ayniqsa XVIII asrda bu jarayon juda keng tus oldi, natijada sayohat janrining turli ko'rinishlari yuzaga keldi. "Ma'rifatchilik davri ingliz adabiyoti, ya'ni XVIII asr Buyuk Britaniya adabiyotida sayohat xotiralari asosan nasriy janr sifatida rivojlandi"[1]. Kembrij universiteti professori, sayohat adabiyoti tadqiqotchisi Tim Yangs sayohat adabiyotini "o'zida janrlararo xususiyatlarni jamlagan janr" sifatida baholab, uni "barcha

adabiy janrlardan eng ijtimoiy muhim janr"[2] ekanini ta'kidlaydi. Amerikalik olim Persi Adams "Sayohat adabiyoti va roman evolyutsiyasi" (Travel Literature and the Evolution of the Novel) nomli asarida sayohat kundaliklarining davrlar osha mashhur bo'lganligini hamda sayohat romanining shakllanishida non-fikshn sayohat xotiralarining muhim o'rnini alohida ta'kidlab o'tgan [3]. Ingliz va inglizzabon ilmiy adabiyotlarda sayohat adabiyoti (travel literature) XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o'rganilib kelmoqda. So'nggi yillarda ingliz va G'arb tillaridagi ilmiy adabiyotlarda sayohat janridagi asarlarga nisbatan an'anaviy "travel literature", "travel writing" bilan bir qatorda "travelogue" atamasi ham keng qo'llanilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XVIII asrda G'arbiy Yevropa, jumladan, Angliyada publitsistika asosiy janr bo'lib,

ushbu davrda jurnalistika sohasi shakllanib, rivojlangan. Matbuotning yo'lga qo'yilishi esa sayohat tafsilotlarini muntazam nashr etish va kitobxonlarni ekzotik mamlakatlar ajoyibotlari bilan batafsil tanishtirish imkonini berdi. Angliyada aslida ilk gazeta XVII asr birinchi choragida chop etila boshlagan bo'lsa ham, qattiq senzura tufayli Restavratsiya davrida ko'p to'siqlarga uchradi. XVIII asr boshlarida esa Angliyadagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi sababli matbuot ma'rifatchilik tafakkuri va g'oyalari markaziga aylandi. Yevropaning ko'plab ma'rifatparvarlari Angliyaning ilg'or madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan tanishish uchun ushbu mamlakatga tashrif buyurdilar. Qirolicha Anna (1702-1714) davrida ingliz matbuoti jamoatchilik fikrini yetkazuvchi maqomga erishdi va jamiyatda sezilarli ta'sirga ega bo'ldi. Bu davrda yirik ingliz yozuvchilari faol jurnalistik faoliyatga kirishdilar, jumladan, D.Defo, J.Svift, H.Filding, S.Jonson va boshqalar [4]. Birinchi "to'laqonli" huquqqa ega Yevropa jurnallari Richard Stil va Jozef Addison tomonidan asos solingan ikkita ingliz jurnali – "Tatler" va "Spectator" bo'lib, ular 1709-yildan nashr etila boshlagan. Ularda asosiy e'tibor adabiyot, falsafa, axloq masalalariga qaratilgan. R.Still va J.Addison adabiyotning tarbiyaviy funksiyasi haqidagi J.Lokning fikrlari tarafdori bo'lib, jurnalning maqsadi nafaqat o'quvchining "ko'ngil ochish"i, balki "mamlakatni yaxshilash", ya'ni uning fuqarolarini ma'rifat orqali komillikka yetaklash deb bilganlar. Ushbu davrdagi real sayohat tafsilotlari muntazam gazeta va jurnallarda chop etilib, unda muallif-sayyoh bitiklari orqali "o'z" va "o'zga" makon o'rtasidagi ilk vositachiga aylanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'n sakkizinchi asrda geografik kashfiyotlar, siyosiy va ilmiy maqsadda amalga oshirilgan ekspeditsiyalar hisobotlari ko'p hollarda kundalik shaklida yozilgan bo'lib, ingliz adabiyotida ushbu an'ana davom ettirildi. Bir sayohatning ikki muallif tomonidan, ya'ni biri S.Jonsonning "Shotlandiyaning G'arbiy orollariga sayohat" ("Journey to the Western Isles of Scotland") [5] hisoboti esselar to'plamidan iborat bo'lsa, J.Bosuelning "Gebridga sayohat kundaligi" (Journal of a Tour to the Hebrides, 1785) [6] esa kundalik shaklida yozib qoldirilgan.

Samuel Jonson (Samuel Johnson, 1709-1784) – ingliz adabiyotshunosi, tilshunosi, shoir. Britaniya ensiklopediya (Encyclopedia Britannica)ning baho berishicha, S.Jonson ma'rifatchilik davri shoiri inglizabon dunyoda XVIII asr ikkinchi yarmi sinonimi, ya'ni o'sha davr adib nomi bilan assotsiatsiyalangan [7]. Jonson to'qqiz yil mobaynida leksikograf sifatida 1755-yilda ingliz tilining izohli lug'atini "Dictionary of the English Language" yaratib, Oksford universitetining san'at magistri darajasiga erishgan. Bundan tashqari S.Jonson 1750-1752-yillar oralig'ida "Rambler" ("The Rambler") jurnalini nashr ettirgan bo'lib, unda o'zining adabiyot va etikaga oid 203 ta maqolasini chop ettirgan. Ushbu jurnal kitobxonlarga maslahat va nasihat qilishni maqsad deb bilgan. O'sha davrda jurnal o'quvchilari ko'proq ko'ngilochar mavzularni o'qishni istashar, shu sababli jurnal o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan. Keyinchalik Jonson u darajada jiddiy bo'lmagan "Aydler" ("The Idler") nomli, o'zbek tilida "bekorchi, dangasa" degan ma'noni anglatadigan yangi jurnalni ochishga majbur bo'lgan. Jonson lirik asarlar, pampflet, drama va romandan tashqari ko'plab ingliz shoirlari ijodiga oid adabiy-tanqidiy asarlar ham yozgan.

S.Jonson 1767-yili yosh Jeyms bilan tanishib, ko'p yillik do'stlikdan keyin 1775-yilda birgalikda yuqorida qayd etilgan mashhur sayohatga, ya'ni Shotlandiyaga, jumladan, Gebrid orollariga sayohat qiladi. Qizig'i shundaki, bir sayohat haqida ikki sayohatchi 63 yoshlik S.Jonson va 32 yoshlik J.Bosuel o'z taassurotlarini mustaqil ravishda sayohat xotiralari sifatida yoritadilar va turli davrlarda chop ettiradilar. S.Jonson

"Shotlandiyaning G'arbiy orollariga sayohat" asarini 1775-yilda yozadi. Ushbu sayohatnomada 1773-yilning yoz va kuz oylarida sakson uch kun davom etgan Shotlandiya, xususan, Gebrid orollari bo'ylab sayohat bayon etilgan.

Ingliz ma'rifatchilik davri adibi Jeyms Bosuel (J.Boswell, 1740-1795) XVIII asr ikkinchi yarmida ikkita sayohat tafsilotlarini yozib qoldirgan. Bosuel "ingliz tilida yaratilgan buyuk biografik asar" deb tan olingan "Samuel Jonsonning hayoti" (The life of Samuel Johnson) [8] nomli ikki jildlik kitob muallifidir. J.Bosuelning o'z ustozlari, bir qator badiiy asarlari va lug'ati bilan mashhur bo'lgan ingliz yozuvchisi Samuel Jonson bilan yaqin do'st bo'lganligi tarixdan ma'lum. Bosuelning bir yil Gollandiyada yashagani va u yerdan 1764-1766-yillarda Germaniya, Shveysariya, Italiya va Fransiyaga sayohat qilgani natijasida uning sayohat kundaliklari yuzaga kelgan.

"Men Gebrid yoki Shotlandiyaning G'arbiy orollariga shuncha vaqtdan beri tashrif buyurishni xohlardimki, bu orzu qanday paydo bo'lganini deyarli eslay olmayman, – deb yozadi Jonson, – 1773-yilning kuzida men janob Bosuelning donoligi tufayli mening tergov-savollarimga javob topishga yordam beradigan, yaxshi suhbatdosh va xushmuomalaligi, nazarimda, mehmondo'st bo'lmagan mamlakatlarga sayohat qilishdagi noqulayliklarni yetarli qoplash uchun hamroh topilgani meni sayohatga chiqishga majbur etdi" [5]. Muallif-sayyoh o'n sakkizinchi avgustda "ta'riflab bo'lmaydigan darajada mashhur shahar" Edinburgni hamrohi bilan tark etib, Shotlandiyaning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab shimolga yo'l olganini mazkur safar xotiralarida bayon etadi.

Samuel Jonson o'z asarida an'anaviy sayohat bitiklari, hisobot va kundaliklarga xos yangi makon tasvirga keng o'rin bergan: "Aberbrotik monastiri Shotlandiya tarixida juda mashhur. Uning xarobalari binoning qadimiy ulug'vorligi haqida yetarli darajada dalolat beradi: menimcha, uning o'lchamlarini begona o'tlar orasidagi devorlarga tayanish orqali osongina aniqlash mumkin, balandligi esa uning qolgan qismlaridan ma'lum. Darvozalardan birining arkasi buzilmagan, boshqalari esa shu qadar eskirganki, bu holat ularning ko'rinishga rang-baranglik beradi. Kvadrat va baland xona hali ham yaxshi turibdi. Men uning nima maqsadda qo'llanilishini tasavvur qila olmadim, chunki uning balandligi uning maydoniga nisbatan juda nomutanosib edi. Ikki burchak minorasi, ayniqsa, e'tiborimizni tortdi" [5]. Sayohat davomida muallif o'z hamrohi haqida, uning xarakterini ham ochib beradigan kuzatishlariga ham alohida o'rin ajratgan. Jumladan, "O'ta qiziquvchanligi va faolligidan rag'batlantirilgan mister Bosuel baland derazaga ko'tarildi, biroq ichidagi narvonni singan holda topdi va shu sababli cho'qqiga chiqa olmadi". Kuzatuvlarini davom etib, shunday yozadi: "bizga yana bir minor haqida aytishdi, aholi ba'zan unga ko'tarilishar ekan, lekin biz ancha vaqt eshikni topolmay, kirolmaganimiz sababli, tun ham allaqachon ustimizda qalinlashgan edi, biz endi bu niyatimizdan tiyilish kerak, deb qaror qildik. Arxitektura sohasida malakali kishilar biz sinab ko'rolmagan ishlarni qilishlari mumkin edi, ehtimol ular bu salobatli binoning aniq chizmasini tuzishlari ham mumkin edi. Ular qolgan bir nechta qismlardan binoning umumiy shaklini taxmin qilishlari mumkin va ehtimol uni xuddi shu turdagi va aynan shu bino bunyod etilgan davrdagi boshqa binolar bilan taqqoslab, haqiqatga yaqin obyektiv fikrga ega bo'lishlari mumkin" [5]. Jonsonning sayohat bitiklari yuqoridagi satrlarga xos aniq ilmiy va statistik ma'lumotlarga boy. Ushbu safar hisoboti aynan real sayohat tafsilotlariga xos aniqlik va obyektivlikka erishishga intilish xususiyati bilan ajralib turadi. Biroq mazkur travelog badiiylilik va subyektivlikdan ham holi emas. "Agar sayohatim Aberbrotikni ko'rishdan boshqa hech narsa bermaganida ham, men o'z sayohatimdan afsuslanmasligim aniq edi" deb, Jonson

ushbu hududning har tomonlama, ham tabiat manzarasi, ham qadimiy obidalariga yuqori baho beradi.

Jeyms Bosuel o'zining eng muhim va xatarli sayohatlaridan biri deb, o'zining Korsikaga yo'l olganini e'tirof etadi. Ayni u sayohat qilgan vaqtda Korsikada Paskale di Paoli rahbarligida Genuaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan edi. Adibning mazkur safar xotiralari uning "Korsika haqida hikoya: ushbu orolga safar kundaligi va Paskale Paoli haqida xotiralar" ("An Account of Corsica, The Journal of a Tour to that Island; and Memoris of Pascal Paoli", 1768) nomli kundaligidan joy olgan. Bosuelning "Samuel Jonson bilan Gebridga sayohat kundaligi" ("Journal of a Tour to the Hebrides with Samuel Johnson", 1785) asarida asli shotlandiyalik bo'lgan adibning angliyalik do'sti S.Jonson bilan birgalikda 1773-yilda amalga oshirilgan sayohat taassurotlari va eng muhimi S.Jonson haqidagi qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu kundaliklar Bosuelning o'zining do'sti deb bilgan uztozi Samuel Jonson haqidagi mashhur biografik asarini yaratishga turtki bo'ldi.

Bosuel sayohat kundaligini Jonsondan deyarli 25 yil keyin e'lon qilgani bois asar uning xotiralarga asoslanganligi, hamda do'stining sayohat kundaligini o'qib, unga ham tayangani kuzatiladi. Jumladan, "Doktor Jonson o'zining "Sayohatlari" asarida shunday yozadi: "Gebridlarni ziyorat qilish istagi qanday paydo bo'lganini deyarli eslay olmayman. ...Biz ushbu safar qandaydir noqulaylik va qiyinchilik, ehtimol, biroz xavf tug'dirishini o'ylardik, lekin ular bizning tasavvurimizda bo'ttirilganiga amin bo'ldik" [6]. Muallif ushbu asarning maqsadi – kerakli, muhim ma'lumotlarni taqdim etish, boshqa sayyohlarning murodlariga erishishlariga yordam berish ekanini ta'kidlaydi. Ushbu kundaliklarda o'sha davrning mashhur insonlari haqidagi ma'lumotlar ham joy olgan. "1764-yilda Ferneyda bo'lganimda, men Volterga rejamiz haqida aytdim. U menga xuddi Shimoliy qutbga borishim haqida gapirayotgandek qaradi va "Siz bilan birga borishimni talab qilmaysizmi?" deya", hazil aralash bergan ritorik savoli bilan Bosuel ещъщтпвфг rejalashtirilgan safar nechog'lik xavfli ekaniga yana bir bor ishora qiladi [6].

**Tahlil va natijalar.** Shu bilan birga ushbu kundaliklarda Bosuelning o'zi haqidagi fikrlarini ham kuzatib boramiz: "Men o'zimni to'liq dunyoning fuqarosi ekanligimni anglab, o'zimga xushomad qilgandayman. Gollandiya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Korsika, Fransiya bo'ylab qilgan sayohatlarimda o'zimni hech qachon uydan yiroqdagidek his qilmaganman, zero, men "har bir irqni, tilni, xalqni va millatni chin dildan sevaman" [6]. Muallifning mana shu qisqagina mulohazalari XVIII asr inglizlar hayotidagi Grand Turning muhim o'rni, amalga oshirilgan sayohatlar, mamlakatdagi siyosiy jarayonlarning ularning milliy identikligi bilan birga, "dunyo fuqarosi" g'oyasining keng tarqalganligini va ushbu g'oya ma'rifatchilar harakatida ham o'z ifodasini topganini kuzatamiz.

Oksford lug'atida "Citizen of the World" iborasiga dunyo fuqarosi – "har qanday mamlakatda o'zini uyidadek his qiladigan odam", [8] ta'rifi berilgan. Bu qisqa va lo'nda ta'rif aslida chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lib, inson dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu ibora orqali butun dunyoni, uning qadriyatlarini anglash, faqat o'z mamlakati manfaatini emas, balki butun insoniyat manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yish nazarda tutiladi. Dunyo fuqarosi har bir joyda yangi narsalarni o'rganishni afzal ko'radi, o'z sayohati davomida turli mamlakatlardan, turli xalqlar va madaniyatlardan yangi bilimlarni to'playdi. Aynan shunday, ya'ni "dunyo fuqarosi" darajasiga intilayotgan qahramonlarni ingliz sayohatnomalarida ham uchratamiz. Ushbu iboraning negizlari aslida qadimgi yunon faylasufi Diogenning kosmopolit mafkurasiga borib taqaladi. Kosmopolitizmga

ko'ra, inson erkin individ bo'lib, ingliz ma'rifatchilari ham, avvalo, inson erkinligini tarannum etishgan. Ular har bir xalq va madaniyatga teng hurmat bilan qarash, dunyoni ma'rifat orqali yaxshilashga intilishadi. Shu nuqtayi nazardan ham ingliz ma'rifatchiligi shakllanishida buyuk gumanist Tomos Mor va uning "Utopiya" asari, Buzonning "Yangi Atlantida" asarlari muhim o'rin egallagan. Aynan ushbu ikki asarda ham sayohat asar syujetining muhim bir qismini tashkil etadi.

Bosuel kundaliklarini o'qish jarayonida nafaqat S.Jonson shaxsiyati haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamsiz, balki uning Shotlandiya orollariga safarining muhim jihatlari bilan ham tanishib boramiz. "Sayohatning oxirida, – deb yozadi muallif, – doktor Jonson janob Braydvudning kar va soqovlar akademiyasiga saxovatli maqtovlar aytdi. U ushbu maskanga tashrif buyurganida, bizning buyuk lug'atshunosimizga xos bo'lgan holat yuz berdi" [6] deya, Jonsonning lingvist sifatida bolalarning ayrim so'zlarni talaffuz eta olishlari bilan qiziqishi va o'zi tekshirib ko'rishi holatini tasvirlaydi. Muallif o'z kundaligidagi S.Jonsonning olim sifatida mazkur safarining har bir lahzalarida imkon qadar ko'proq kerakli va qimmatli ma'lumotlarni olish, o'ziga xos tajriba orttirishini kuzatishini batafsil bayon etadi.

Fransuz olimi J.Vivyening ta'kidlashicha, "bu ikki safar xotiralari bir-biridan tubdan farq qiladi, chunki Jonson o'z nigohini Shotlandiyaga qaratgan bo'lsa, Bosuel asosiy e'tiborni Jonsonga qaratadi" [9]. Asarda Bosuelning ushbu sayohat haqidagi quyidagi fikrlari ham ahamiyatli: "Endi men Gebrid orollari bo'ylab sayohatimiz haqidagi hikoyamni tugatdim. Men doktor Jonsonni Shotlandiyaga olib keldim, sayohat yakunida uni vagonga kuzatib qo'ydim, bir necha soatdan keyin poyezd uni Angliyaga olib ketdi. U menga ushbu sayohatda o'tkazgan vaqti hayotining eng yoqimli qismi ekanligini tez-tez aytdi va mendan besh yuz funt evaziga ushbu xotiralarni yo'qotishga rozi bo'lasizmi, deb so'radi. Men yo'q deb javob berdim, u esa men ongimni yangi tasvir va obrazlar bilan boyitganimni qadrlashimni eshitib, menga xayrixohlik bildirdi" [6].

Bosuelning Gebrid orollariga sayohati hayoti va ijodida, shu bilan birga o'z uztozi deb bilgan S.Jonsonning keyingi ilmiy va ijodiy faoliyatida nechog'lik muhim ahamiyatga ega bo'lganiga iqrar bo'lgan holda, o'z sayohat xotiralari quyidagilarga iqrar bo'ladi: "Agar men bo'lmaganimda, ishonchim komilki, doktor Jonson hech qachon bunday sayohatga chiqmagan bo'lardi. Qaytgandan so'ng chop etgan kitobi kabi tilimizning boyib ketishiga men sababchi bo'lganman, deb o'ylayman. Garchi men hech qachon o'qimagan bo'lsam ham, bitoq meni hayratga tushirgan ushbu kitobning qanday qiyin sharoitlarda, juda noyob manbalardan tuzilganligini o'z ko'zim bilan ko'rish va kuzatish imkoniyatiga ega bo'lganman" [6]. Yuqorida qayd etganimizdek, ushbu satrlar orqali Bosuel mazkur sayohat kundaligidagi S.Jonsonning safar xotiralari va tilshunoslikka oid asarlarini ham nazarda tutgan.

**Xulosa va takliflar.** Jonsonning 1775-yilda va Bosuelning 1785-yilda chop etilgan ushbu asarlari keyinchalik bir to'plamda nashr etiladigan bo'lib, bu o'ziga xos bir voqea-hodisalar va manzaralarga nisbatan ikki xil nuqtayi nazarni qiyoslashga imkon beradi. Ikki muallifning mazkur sayohat tafsilotlari har xil uslubda bitilgan bo'lib, turli davrlarda nashr etilgan. Tahlil natijasida Jonson mazkur asarini F.Bekoning "Of Travel" [10] sayohat haqidagi essesinde berilgan ko'rsatma va tavsifalar asosida yozgan, degan xulosaga kelamiz. Jonson o'z empirik kuzatishlarini muntazam yozib borgan, tarixiy obyekt va hodisalarni ta'riflashda aniq raqamlar va fatklarga tayanib, obyektivlikka intiladi. J.Bosuelning mazkur sayohatga bag'ishlangan asari esa boshqa rakursdan beriladi.

S.Jonsonning sayohat tafsilotlari esse shaklidagi asarlar yig'indisidan iborat sayohat hisoboti bo'lsa, Bosuelning asari esa kundalik shaklda yozilgan. Jonson asarida Shotlandiyadagi Gebrid orollaridagi universitet, kollej, ibodatxonalar haqida bayon etilsa, Bosuelning asarida esa sayohat davomida sodir bo'lgan voqea-hodisalar S.Jonsonning shaxsiy hayoti bilan

bog'liqlikda berib boriladi. Aynan shu jihatlari bilan Bosuelning kundaliklari katta qiziqish uyg'otib, sayohat tafsilotlarining yangi shaklini, ya'ni muallif-sayyohning sayyoh-hamrohi safarini kuzatishi, uni tahlil qilib, sayyoh shaxsining hayoti bilan bog'liqlikda taftish etishi bilan boshqa traveloglardan ajralib turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Dorothy M. George. London life in the Eighteenth century. Penguin Books, 1976.
2. Youngs T. Travel writing in the eighteenth century. In: The Cambridge Introduction to Travel Writing. Cambridge University Press. 2013. – P.38.
3. Percy G. Adams. Travel Literature and the Evolution of the Novel, 1983.
4. Английская журналистика 18 в. // <https://studfile.net/preview/8587639/page:18/>
5. Johnson S. A Journey to the Western Isles of Scotland. / <https://www.gutenberg.org/files/2064/2064-h/2064-h.htm>
6. Boswell J. Journal of a Tour to the Hebrides with Samuel Johnson. / <https://www.gutenberg.org/files/2064/2064-h/2064-h.htm>
7. <https://www.britannica.com>
8. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/lexicon>
9. Vivies J. English Travel Narratives in Eighteenth Century. Taylor & Francis Group. – London and New York. 2016. – P.32.
10. Bacon F. Of Travel. / Authorama. Public Domain Books <https://www.authorama.com/essays-of-francis-bacon-1.html>